

## AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA FARAVONLIGINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA DINAMIKASI

**Muxamedova Muslima Maxmudovna**

Milliy statistika qo'mitasi  
Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi  
boshqarmasi bosh mutaxassisi  
Bank-moliya akademiyasi magistranti  
E-mail: [muslima.muhamedova@gmail.com](mailto:muslima.muhamedova@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari, jumladan, daromadlar, real daromadlar, o'sish sur'atlari, aholi daromadlarining tarkibi, shakllanishidagi alohida manbalarning ahamiyati hamda statistik usullarda tahlil qilish masalalari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasining aholi umumiy daromadlari o'zgarishi dinamikasi tahlil qilinib, turmush darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan. Tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu esa mavjud tendensiyalarni baholash va aholi turmush darajasini oshirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini bergan.

**Kalit so'zlar:** turmush darajasi, aholi umumiy daromadlari, birlamchi daromad, transfertlar, mehnat faoliyati, yollanma ishchilar.

### Аннотация

В статье рассматриваются основные показатели уровня жизни населения, включая доходы, реальные доходы, темпы роста, структура доходов населения, значение отдельных источников в их формировании и вопросы статистического анализа. Проанализирована динамика изменений совокупных доходов населения Республики Узбекистан и выявлены ключевые факторы, влияющие на уровень жизни. Особое внимание уделено социально-экономическим и демографическим аспектам, что позволило оценить существующие тенденции и определить направления повышения уровня жизни населения.

**Ключевые слова:** уровень жизни, совокупные доходы населения, первичные доходы, трансферты, трудовая деятельность, наёмные работники.

### Abstract

This article examines the main indicators of living standards, including income, real income, growth rates, the composition of household income, the importance of specific sources in income formation, and issues of statistical analysis. The dynamics of total household income changes in the Republic of Uzbekistan are analyzed, identifying key factors affecting the standard of living. Particular attention is given to socio-economic and demographic aspects, enabling an assessment of current trends and identification of areas for improving living standards.

**Keywords:** standard of living, total household income, primary income, transfers, labor activity, hired employees.

## KIRISH

Aholining turmush darajasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, aholining hayot sifatini, ularning farovonligini va hayotning asosiy ne'matlaridan foydalanish imkoniyatini aks ettiradi. Bu ko'p qirrali tushunchaga, ya'ni daromad, bandlik, minimal iste'mol xarajatlari, ta'lim va sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati, uy-joy sharoiti, iste'mol xarajatlari kabi ko'rsatkichlar kiradi. Aholining turmush darajasi va farovonligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni shakllantirishning asosiy manbai — statistika organlari tomonidan o'tkaziladigan uy xo'jaliklari tanlama kuzatuv hisoblanadi. Aholi daromadlari dinamikasi bugungi kunda eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biridir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyasiga ko'ra, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, sanitariya-gigiyena sharoitlarining mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol darajasi, uy-joy sharoitlari, ta'lim olish va madaniy imkoniyatlarning mavjudligi, bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste'mol narxlari, transport vositalari bilan ta'minlanganlik, ijtimoiy ta'minot tizimining mavjudligi, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi ko'rsatkichlar turmush darajasini ifodalovchi mezonlar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar nafaqat aholining hozirgi farovonligini baholash, balki turmush darajasidagi o'zgarishlar dinamikasini kuzatish, ijobiy va salbiy tendensiyalarni aniqlash, shuningdek, iqtisodiyot va ijtimoiy soha uchun mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qilish imkonini beradi.

Aholining turmush darajasi dinamikasi iqtisodiy o'sish, davlatning ijtimoiy siyosati, iqtisodiy infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar, shuningdek, tashqi omillar va ularning oqibatlariga bog'liq. Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan aholi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, BMT Bosh assambleyasida 2015-yilda qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturlari bevosita dunyo mamlakatlari aholisini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ularning salomatligini asrashga qaratilgan muhim chora-tadbirlardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab izchil amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli islohotlar zahirida ulug' maqsad — xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish, aholi turmush farovonligini oshirish maqsadlari belgilangan.

Shunday qilib, aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari va dinamikasini tahlil qilish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati hamda aholi farovonligini yaxshilash bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Davlat tomonidan

amalga oshirilayotgan har qanday islohotlarning yakuniy maqsadi aholining turmush tarzini yaxshilash va farovon hayot kechirishga qaratilgan. Amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari esa raqamlarda aks etadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakat aholisining turmush darajasini o'rganish va bu yo'nalishdagi tadqiqotlar 1920-yillardan boshlangan. V.N. Salin, I.M. Bloxina, T.I. Barsh, V.F. Mayer, N.I. Buzlyakov va boshqa olimlar ushbu muammoni faol o'rganishgan. Ular o'z ishlarida aholi turmush darajasini mamlakat farovonligi va rivojlanishining xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlar aholining turmush darajasini o'rganish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, tegishli ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishga xizmat qilgan.

V.N. Salin "Aholi turmush darajasi"ni – aholining iste'mol ehtiyojlarini qondirishning moddiy imkoniyatlarini xarakterlovchi holat sifatida ta'riflaydi. U bu tushunchaga ijtimoiy hayotning turli jihatlarini: mehnat sharoiti, aholi daromadlari va xarajatlari darajasi hamda tuzilmasi, bo'sh vaqtdan foydalanish, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at va boshqa sohalarning rivojlanish darajasini kiritadi. Unga ko'ra, ijtimoiy hayotning ushbu jihatlarini miqdoriy tavsiflash ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar yordamida amalga oshiriladi hamda aholi turmush darajasi va ijtimoiy rivojlanishini statistik o'rganish predmeti hisoblanadi.

I.M. Bloxina aholi pul daromadlari ko'rsatkichlarini turmush darajasi xususiyatlarining universal mezoni sifatida ta'kidlaydi. U statistik o'rganish, qiyosiy tahlil, dinamikani baholash, daromadlar va xarajatlarni differentsiallashtirish, aholi jon boshiga o'rtacha daromadlar darajasidagi tafovutlarni hududlar kesimida aniqlash orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini har tomonlama baholash imkonini beradi, deb hisoblaydi. Statistik ma'lumotlar asosida turli faoliyat turlaridan olinadigan oylik daromadlar bo'yicha aholini guruhlarga ajratish imkoniyati vujudga keladi. Ushbu guruhlar asosiy xarajatlar nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinadi. Unga ko'ra, aholi daromadlari bo'yicha yuzaga kelgan sezilarli tabaqalanish davlat darajasida muayyan muhim yechimlarni talab etuvchi asosiy muammo hisoblanadi.

T.I. Barsh o'z maqolasida aholi farovonligi, turmush sifati, ijtimoiy farovonlik kabi ko'rsatkichlar haqida umumiy ma'lumotlar taqdim etgan. U pul daromadlari va xarajatlari balansiga asoslanib, yashash qiymati va aholi jon boshiga real daromadlar dinamikasini tahlil qilgan.

Mahalliy adabiyotlarda, xususan, *Statistika asoslari* darsligida prof. N.M. Soatov aholining turmush darajasini kishilarning moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida baholab, uni ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida tavsiflaydi. U bu tushunchaga ijtimoiy yashash sharoitlarini yaxshilash konsepsiyasi sifatida qaraydi.

Yo. Abdullayev *Statistika nazariyasi* darsligida aholi daromadlari masalasiga alohida to'xtalib, "agar so'z aholi turmush tarzi yoki turmush darajasi to'g'risida

boradigan bo'lsa, eng avvalo, aholining real daromadlari darajasi va uning o'zgarish yo'nalishi nazarda tutiladi" degan fikrni ilgari suradi.

B. G'oyibnazarov o'z ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, turmush darajasini statistik baholash usullari, tamoyillari, mezonlari va ko'rsatkichlar tizimi hamda ularning statistik axborotlar bazasini kompleks tarzda o'rganadi.

Umuman olganda, har bir muallif turmush darajasini qanday tahlil qilish va o'lchashni o'ziga xos tarzda belgilaydi. Shu bilan birga, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va turmush darajasini baholashda daromadlar, xarajatlar, ijtimoiy sharoitlar va ehtiyojlar tarkibi kabi asosiy toifalar muhim tarkibiy qismlar sifatida e'tirof etiladi.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari bo'yicha 2021–2023-yillar uchun e'lon qilgan ma'lumotlari asosiy manba sifatida foydalanilgan. Xususan, tadqiqotda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi: aholining umumiy daromadlari, aholi jon boshiga umumiy daromadlar, daromadlarning nominal va real o'sish sur'atlari, daromadlar tarkibi (mehnat faoliyatidan, mol-mulkdan va transfertlardan olingan daromadlar), minimal iste'mol xarajatlari (MIX), kambag'allik darajasi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**


O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar izchil ravishda o'sib bormoqda. Aholining turmush darajasi va sifati, birinchi navbatda, aholi jon boshiga o'rtacha pul daromadlari, real pul daromadlari, daromad manbalari bo'yicha pul daromadlari hajmi va tarkibi, aholi xarajatlari hajmi va tarkibi bilan aks etadi.

Aholi daromadlarining oshishi va aniq yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlari o'rtacha daromadlarining o'sib borishida muhim omil bo'ldi.

O'zbekistonda uy xo'jaliklarining iste'mol qilishga qodirligini aniqlash mezoni sifatida foydalaniladigan muhim indikator — umumiy daromadlar (joriy tushumlar) hisoblanadi, chunki ular iste'mol qilish yoki jamg'arish imkoniyatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi.


Aholining umumiy daromadlari — majburiy to'lovlar va boshqa ajratmalarni amalga oshirishdan oldingi yalpi daromadni ifoda etadi.

Aholining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam muddatli davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi (1-rasm).



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning 10 yillik dinamikasi (ming so‘m)<sup>1</sup>**

2024-yil aholi jon boshiga umumiy daromadlar 24,1 mln. so‘mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o‘shish sur‘ati 116,1 %s ni tashkil etgan (2-rasm).



**2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o‘shish sur‘atlari<sup>2</sup>**

Iste‘mol narxlarining o‘zgarishi sababli o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘shish sur‘ati 105,9 %ni tashkil etdi.

Taqdim etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining umumiy daromadlari 2014–2024-yillar davomida barqaror va sezilarli o‘shishni namoyon qilmoqda:

- 2014-yil — 4759,6 mln so‘m
- 2024-yil — 24111,9 mln so‘m

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari

Mazkur davrda jami tushumlar 19352,3 mln so‘mga oshgan (24111,9 – 4759,6), bu esa taxminan 506 %lik o‘shishni tashkil etadi. Bu barqaror o‘shish mamlakat iqtisodiyotida ro‘y bergan ijobiy o‘zgarishlar, ish haqi oshishi, ish o‘rinlari sonining ko‘payishi hamda uy xo‘jaliklari daromadlarining yaxshilanishi kabi omillar ta‘sirida yuzaga kelganini ko‘rsatadi.

Chuqurroq tahlil uchun o‘rtacha yillik o‘shish sur‘atini (CAGR — Compound Annual Growth Rate) hisoblash maqsadga muvofiqdir. Bu orqali daromadlarning yildan-yilga o‘rtacha qanday sur‘at bilan oshganini aniqlash mumkin. Aholining jami daromadlari bo‘yicha o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati taxminan 18,5 %ni tashkil etgan. Bu esa tahlil qilinayotgan davr mobaynida mamlakatda iqtisodiy o‘shishning barqaror kechganini ko‘rsatuvchi yuqori ko‘rsatkichdir.

Shuningdek, 2017–2018-yillarda (24,8 %) va 2020–2021-yillarda (22,7 %) eng yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatilgan. Bu esa iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, investitsiyalar hajmining ortishi hamda pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (1-jadval).

### 1-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati<sup>1</sup>

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>		<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
	<i>2023 y.</i>	<i>2024 y.</i>	
<b>Umumiy daromadlar – jami (I+II)</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>115,0</b>
I. Birlamchi daromadlar	72,9	74,0	120,3
I.1. Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	70,1	70,7	119,5
I.1.1. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	63,6	62,9	117,2
I.1.1.1. Yollanma ishchilarning daromadlari	27,8	27,9	119,0
I.1.1.2. Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar	35,8	35,0	115,9
I.1.2. Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	6,6	7,8	141,1
I.2. Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,8	3,4	141,4
II. Transfertlardan olingan daromadlar	27,1	26,0	113,7

2024-yilda aholi umumiy daromadlarining 74,0 %ini birlamchi daromadlar tashkil qilgan bo‘lsa, 26,0 %i transfertlardan olingan daromadlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan shakllangan (jami aholi umumiy daromadlarining 62,9 %i). Ushbu ko‘rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 117,2 % nominal o‘shish sur‘atini tashkil qilgan.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 7,8 %, mol-mulkdan olingan

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari

daromadlarning ulushi 3,4 %, transfertlardan olingan daromadlar ulushi esa 26,0 %ni tashkil etgan.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band boʻlgan aholining daromadlaridan tarkib topadi. 2024-yilda aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar 62,9 %ni tashkil qilgan boʻlsa, 2023-yilda bu koʻrsatkich 63,6 %ni tashkil etgan.

Mustaqil ravishda band boʻlishdan olingan daromad — mustaqil tarzda tashkillashtirilgan va uy xoʻjaligi aʼzolari jalb qilingan mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlardir. 2024-yilda aholining umumiy daromadlari tarkibida ushbu toifadagi daromadlar 35,0 %ni tashkil qilgan. Mustaqil bandlikdan olingan daromadlarning oʻsish surʼati 115,9 % boʻlib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 6,5 %ga oʻsishiga hissa qoʻshgan.

Yollanma ishchilarning daromadlari — mehnatga haq toʻlashning yashirin qismini ham oʻz ichiga olgan, pul yoki natura (tovarlar yoki xizmatlar koʻrinishida) shaklida amalga oshiriladigan toʻlovlardir. 2024-yilda yollanma ishchilarning daromadlari aholining umumiy daromadlarida 27,9 %ni tashkil qilgan boʻlib, 119,0 % oʻsish surʼatini koʻrsatgan va umumiy daromadlar nominal hajmining 5,7 %ga oshishiga sabab boʻlgan.

Mol-mulkdan olingan daromadlar 3,4 %ni tashkil etgan. Bu asosan ijaraga berilgan mol-mulklardan olinadigan daromadlardir. Ular mulkiy egalik huquqi asosida moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga vaqtincha foydalanish uchun berish orqali uy xoʻjaliklariga tushadigan tushumlar sifatida tavsiflanadi. Mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim boʻlishiga qaramay, bu daromadlar ulushi nisbatan past darajada qolmoqda.

Transfertlardan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlarining muhim qismini tashkil etadi. Bu daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlarni oʻz ichiga oladi. 2024-yil maʼlumotlariga koʻra, transfertlar umumiy daromadlarda 26,0 % ulushga ega boʻlgan va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 113,7 % oʻsish surʼatini koʻrsatgan.

Oʻtkazilgan kuzatuvlar va aholi fikrlari tahlili shuni koʻrsatdiki, Oʻzbekiston tanlagan iqtisodiy taraqqiyot yoʻli ijobiy natijalar bermoqda. Natijada yangi iqtisodiy imkoniyatlar shakllanib, mamlakatda barqaror oʻsish tendensiyasi kuzatilgan. Eng muhim jihatlardan biri shundaki, iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlari aholining turmush darajasida bevosita aks etmoqda.

Davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning muhim yoʻnalishlaridan biri — kambagʻallikni qisqartirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar boʻldi. Ayniqsa, Prezident tomonidan ilgari surilgan islohotlar doirasida bu yoʻnalishda keng koʻlamli tashabbuslar amalga oshirildi. Natijada kambagʻallikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash boʻyicha sezilarli yutuqlarga erishildi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2026-yilga borib kambag‘allik darajasini ikki baravarga qisqartirish vazifasi belgilangan. Bu jarayonda aholining manzilli qo‘llab-quvvatlanishi, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda institutsional bazani takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratiladi.


Mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish, aholining maqsadli guruhlarini aniq belgilash uchun mezon va uslubiy yondashuvlarning ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega.

Ushbu uslubiy yondashuv va axborot bazasini shakllantirish, aholining turmush sharoiti va ijtimoiy holatini bevosita aks ettiruvchi, ularning iste‘mol tarkibi va xususiyatlari bo‘yicha real holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni hisoblashni talab etadi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, xususan, O‘zbekistonda aholining kambag‘al qatlamini aniqlash uslubini amaliyotga joriy etish va uni takomillashtirib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Minimal iste‘mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

Minimal iste‘mol xarajatlari (MIX) — uy xo‘jaliklarining real iste‘mol qiymatlari va tarkibini o‘rganish asosida ularning sog‘lom hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari hamda xizmatlar uchun minimal xarajatlarning hisoblangan qiymatini anglatadi (3-rasm).

**Minimal iste‘mol xarajatlari  
qiymati,  
ming. so‘m**



**O‘zbekiston Respublikasida  
kambag‘allik darajasi**



**3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Minimal iste‘mol xarajatlari  
qiymati va kambag‘allik darajasi<sup>1</sup>**

2024-yilda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish 6,5 % ga yetdi. Bu, jahon miqyosidagi iqtisodiy inqiroz sharoitida katta ijobiy natija hisoblanadi. Eng asosiysi, Prezidentimiz

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari

tomonidan belgilangan aniq va to‘g‘ri maqsadlar natijasida 2024-yilda 2021-yilga nisbatan kambag‘allik darajasi 17 %dan 8,9 %ga qisqartirildi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Fuqarolar daromadlari darajasi ularning farovonligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, jamiyat har bir a‘zosining dam olish, bilim olish, sog‘liqni saqlash va zaruriy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, oila daromadlari haqidagi umumlashtirilgan ma‘lumotlar mamlakat iqtisodiyotining holati haqida muhim axborot manbai hisoblanadi va uning iqtisodiy-siyosiy istiqbolini bashorat qilish imkonini beradi. Shu sababli iqtisodchilar aholi daromadlarining shakllanishi va dinamikasini doimiy ravishda kuzatib boradilar.

Mamlakatda aholi daromadlarining barqaror oshib borishi ularning turmush sharoiti va hayot sifati bosqichma-bosqich yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda, aholi turmush darajasi — bu kishilarning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlar bilan ta‘minlanganligi, shuningdek, ularning ehtiyojlarining qondirilish darajasi sifatida ta‘riflanadi.

Yuqorida keltirilgan barcha faktlar respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash va fuqarolarning farovon, to‘la hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilganidan dalolat beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘RQ-707-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-5569619>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4926736>
3. Рутгайзер В.А. “Оценка стоимости бизнеса” Учебное пособие, 2007г.
4. Салин В.Н. “Статистика уровни жизни населения” Учебное пособие 2019 г.
5. И.М. Блохина, В.Ю. Брык, А.М. Зеленская ОЦЕНКА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ/ Вестник Академии знаний № 50 (3), 2022
6. Барш Татьяна Ивановна канд. техн. наук, доцент АНО ВПО «Московский гуманитарный университет» г. Москва/ АНАЛИЗ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ
7. Yo.Abdullayev/ STATISTIKA NAZARIYASI/ Iqtisodchi kadrlar tayyorlovchi oliy uquv yurtlari talabalari uchun darslik, TOSHKENT „UQITUVCHI“ 2002

8. Европейская комиссия, Международный валютный фонд, Организация экономического сотрудничества и развития, Организация Объединенных Наций и Всемирный банк (2012), “Система национальных счетов 2008”.

9. Составление планов выборки для обследований домашних хозяйств: практические рекомендации. Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2010 год.

10. Жаҳон банкининг расмий сайти: [www.databank.worldbank.org](http://www.databank.worldbank.org).

11. МДХ Статистика қўмитаси расмий сайти: [www.cisstat.org](http://www.cisstat.org).

12. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг расмий сайти: <https://stat.uz/uz>.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, mart, 3-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**